




# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## SIRDARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

2023- YIL YANVAR-NOYABR


# SIRDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- dekabr holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 074 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 370 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 34,5 % Guliston shahrida joylashgan.

## 2023- yil 1-dekabr holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda


Guliston sh	370
Mirzaobod tumani	119
Sirdaryo tumani	96
Yangiyer sh	82
Guliston tumani	77
Boyovut tumani	69
Sayxunobod tumani	69
Xovos tumani	60
Oqoltin tumani	57
Sardoba tumani	39
Shirin sh	36



Fuqarolik obyektlarini  
qurish



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari





Bino va inshootlar  
qurilishi

Shuningdek, Guliston shahrida 370 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 34,5 %), Mirzaobod tumanida – 119 ta (11,1 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-noyabr uchun)


2023- yilning yanvar-noyabr oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 3 373,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni tashkil etdi.



*Maʼlumot uchun:* qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

# 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida Sirdaryo viloyatida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati, %da




2023- yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida xususan, Guliston shahri (885,1 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (851,2 mlrd. so'm) va Sirdaryo tumanida (547,7 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 60,6 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 37,0 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,4 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

## 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 79,2 % yoki 2 670,1 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 713,0 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 26,7 % ni tashkil etdi.

26,7 %

713,0  
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 748,1 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 65,5 % ni tashkil etdi.

65,5 %


1 748,1  
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 209,0 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 7,8 % ni tashkil etdi.

7,8 %


209,0  
mlrd. soʻm

## Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



## 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Guliston shahri (707,5 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (649,9 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (469,1 mlrd. so'm) va Sardoba tumani (161,4 mlrd. so'm) qayd etildi.



# 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **2 045,7 mlrd. so'm**

**21,9 %**

Yirik qurilish  
tashkilotlari

**447,8**  
mlrd. so'm

2022- yilning mos  
davriga nisbatan

**99,5 %**

**60,4 %**

Kichik korxonalar  
va  
mikrofirmalar

**1 235,4**  
mlrd. so'm

2022- yilning mos  
davriga nisbatan

**100,6 %**

**17,7 %**

Norasmiy sektor

**362,5**  
mlrd. so'm

2022- yilning mos  
davriga nisbatan

**127,7 %**

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 21,9 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,2 % punktga kamayib, 60,4 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,2 % punktga ko'payib, 17,7 % ni tashkil etdi.



# 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

*Maʼlumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Xovos tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 77,5 %), Sardoba tumani (71,3 %) va Shirin shahri (68,3 %) da kuzatildi.



Xovos tumani  
**77,5 %**



Sardoba tumani  
**71,3 %**



Shirin shahri  
**68,3 %**

**2023- yilning yanvar-noyabr oylarida fuqarolik  
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari  
Korxonalar turlari bo'yicha**

**Fuqarolik obyektlarini qurish, mlrd. so'm**

**21,2 %**

Yirik qurilish  
tashkilotlari

**265,1**

mlrd. so'm

2022- yilning mos  
davriga nisbatan

**130,1 %**

**78,8 %**

Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar

**983,0**

mlrd. so'm

2022- yilning mos  
davriga nisbatan


**99,8 %**

**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 21,2 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 4,1 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 78,8 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 4,1 % punktga kamaydi.

# 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



*Ma'lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Guliston shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 49,1 %), Mirzaobod tumani (39,6 %) va Oqoltin tumani (33,7 %)da kuzatildi.



**49,1 %**  
Guliston shahri



**39,6 %**  
Mirzaobod tumani



**33,7 %**  
Oqoltin tumani

# 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd. so'm




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi va 2,4 % ni tashkil etdi.

# 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

*Ma'lumot uchun:*  
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Boyovut tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 6,1 %), Guliston tumani (5,8 %) va Sayxunobod tumanida (4,9 %) kuzatildi.



**6,1 %**  
Boyovut tumani




**5,8 %**  
Guliston tumani



**4,9 %**  
Sayxunobod tumani

# 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

### Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**109,3 %**

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**100,6 %**

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**124,4 %**


# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 713,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,8 % ga ko'payib, 21,1 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Guliston sh.	20,3
Shirin sh.	124,3
Yangiyer sh.	1,3
Boyovut	2,2
Guliston	24,4
Mirzaobod	201,7
Oqoltin	0,6
Sardoba	136,2
Sayxunobod	1,4
Sirdaryo	155,0
Xovos	45,6

## Jamiga nisbatan ulushi



Shirin sh.



Sardoba tumani




Xovos tumani

*Ma'lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shirin shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 70,8 %), Sardoba tumanida (55,8 % ) va Xovos tumanida (34,4 %) qayd etildi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 68,1 % to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,6 % ni tashkil etgan holda 2 297,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan  
**162,4 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan  
**87,8 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan  
**100,6 %**




**115,3 %**  
oldingi yilning mos  
davriga nisbatan


**102,1 %**  
oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

# 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

## Hududlarning hajmi, mlrd. so‘m



## Jamiga nisbatan ulushi



Guliston shahri



Mirzaobod tumani




Sirdaryo tumani

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahrida (799,4 mlrd. so‘m), Mirzaobod tumanida (620,7 mlrd. so‘m) va Sirdaryo tumaniga (295,7 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

# 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 10,8 % ni yoki 362,5 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 124,4 % ni tashkil etdi. Shundan 200,4 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 148,2 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 8,6 mlrd. soʻmni va 96,5 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 153,5 mlrd. soʻmni va 104,3 % ni tashkil etdi.

oldingi yilning mos davriga nisbatan **124,2 %**

oldingi yilning mos davriga nisbatan **95,4 %**

oldingi yilning mos davriga nisbatan **124,4 %**

**221,5**  
mlrd. soʻm

**248,5**  
mlrd. soʻm

**254,2**  
mlrd. soʻm

**254,8**  
mlrd. soʻm

**362,5**  
mlrd. soʻm

2019

2020

2021

2022

2023

**92,7 %**  
oldingi yilning mos davriga nisbatan

**88,4 %**  
oldingi yilning mos davriga nisbatan

# 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

	65,4
Guliston sh.	4,4
Shirin sh.	14,2
Yangiyer sh.	32,1
Boyovut	38,3
Guliston	28,8
Mirzaobod	11,9
Oqoltin	19,4
Sardoba	19,0
Sayxunobod	97,0
Sirdaryo	32,0
Xovos	



**97,0** mlrd. soʻm  
Sirdaryo tumani



**65,4** mlrd. soʻm  
Guliston shahri




**38,3** mlrd. soʻm  
Guliston tumani

*Maʼlumot uchun:* koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Sirdaryo tumanida (97,0 mlrd. soʻm), Guliston shahrida (65,4 mlrd. soʻm) va Guliston tumanida (38,3 mlrd. soʻm) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-noyabr oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



■ Davlat mulkchiligi

■ Nodavlat mulkchilik

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 99,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3 273,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,0 % va 97,0 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Mirzaobod tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 98,0 %), Shirin shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 97,8 %) va Sardoba tumanida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 97,8 %) qayd etildi.

## **Qurilish ishlari USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.